

MUSTAQILLIK YILLARIDA QORAQALPOG‘ISTON DEHQONCHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Qurbonboyeva Barchinoy Oybek qizi

Berdaq nomidagi qoraqalpoq davlat universiteti
tarix fakulteti 2-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20553372>

Annotatsiya. Mazkur maqolada mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va ilmiy faoliyati tahlil qilingan.

Institutning 2019–2023-yillardagi ilmiy loyihalari, yangi qishloq xo‘jaligi ekinlari navlarini yaratish, innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy etish hamda tijoratlashtirish borasidagi faoliyati yoritilgan. Shuningdek, institutning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi, ilmiy salohiyatini oshirishga qaratilgan chora tadbirlar va Orolbo‘yi mintaqasining murakkab ekologik sharoitlarida qishloq xo‘jaligini rivojlantirishdagi o‘rni ochib berilgan. Tadqiqot natijalari Qoraqalpog‘iston Respublikasida agrar soha taraqqiyotida ilm-fan va innovatsiyalarning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Qoraqalpog‘iston dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti, qishloq xo‘jaligi, ilmiy-tadqiqot faoliyati, innovatsiyalar, seleksiya, yangi navlar, urug‘chilik, Orolbo‘yi mintaqasi, agrar rivojlanish, xalqaro hamkorlik, tijoratlashtirish, ilmiy loyihalar.

Abstract. This article analyzes the stages of formation, development, and scientific activity of the Karakalpakstan Research Institute of Agriculture during the years of independence. The study highlights the institute’s scientific projects implemented in 2019–2023, the creation of new crop varieties, the introduction of innovative developments into practice, and the commercialization of research results. Special attention is given to international cooperation, measures aimed at strengthening scientific capacity, and the institute’s role in developing agriculture under the challenging ecological conditions of the Aral Sea region. The findings demonstrate the significant role of science and innovation in the development of the agricultural sector of the Republic of Karakalpakstan.

Keywords: Karakalpakstan Research Institute of Agriculture, agriculture, scientific research, innovation, plant breeding, new varieties, seed production, Aral Sea region, agricultural development, international cooperation, commercialization, scientific projects.

Qoraqalpog‘iston dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutining 2019-2023 yillarda amalga oshirilgan ishlari va erishilgan natijalari haqida aytadigan bo‘lsak, institut Fanlar Akademiyasining 50-K sonli qaroriga muvofiq 1958 yilda tashkil etilgan bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi PQ-4975 va PF-6159-sonli Qarori¹ va farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 24 sentyabrdagi 601-sonli qaroriga muvofiq qayta tashkil etilgan.

Qoraqalpog‘iston dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutida 7 laboratoriya bo‘lib, unda jami xodimlar soni 74, shundan 23 ilmiy-xodim, ularning o‘rtacha yoshi 49 yoshni tashkil etadi,

¹ <https://lex.uz/docs/5262596>

shundan ilmiy darajaga ega bo'lgan xodimlar 9, shundan ikkitasi DSc, yettitasi PhD, ilmiy-tajriba stansiyalari soni bittasi Qoraqalpog'iston dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti tajriba xo'jaligi.

Qoraqalpog'iston dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutida amalga oshirilayotgan ilmiy loyihalar 2019-yili 1024,7 mln so'mlik uch amaliy, uch innovatsion, 2020-yili esa undan ortiq 2246,1 mln so'mlik olti amaliy, 2021-yili esa 1711,2 mln so'mlik to'rt amaliy, 2022-yili ikki barobarga ko'paytirish 3188,0 mln so'mlik besh amaliy va bir innovatsion, 2023-yili 2575,0 mln so'mlik besh amaliy va bir innovatsion loyihalar doirasida ilmiy-tadqiqot ishlari hozirgi kunda o'z ishini olib bormoqda.

Institutda yangi yaratilgan navlar va ixtirolar ko'plab uchraydi. 2019 yilda kuzgi bug'doyning Chimboy va Orol navlari yaratildi va 2021 yilda Chimboy navi, 2022 yilda Orol navi istiqbolli deb topilib, davlat reyestriga kiritildi.

2020 yilda Kungaboqarning KK-28 va KK-52 navlari yaratildi va davlat navlarni sinash markaziga taqdim etildi.

2021 yilda kungaboqarning KK-50, Afrika tarig'ining G-6, Sudan o'tinining Chimboyskaya-12 navlari yaratildi va davlat nav sinash markaziga taqdim etildi.

2022-yili g'o'zaning KK-3535, Chimboy-5060 navlari va bitta Seyalka g'altak ixtiro qilindi va natijani amalda qo'llandi.

2023 yilda g'o'zaning KK-3545, Kunjutning serhosil, bahorgi bug'doyning Saule navlari yaratilib, davlat nav sinash markaziga taqdim etildi va natija amaliyotda qo'llanildi².

Ishlanmalarni xalq turmushiga tatbiq etish va tijoratlashtirish ishlari olib borildi, masalan, institutda yaratilgan g'o'zaning Chimboy-5018 va KK-3535 navlarining urug'larini yetishtirish ishlari 2022-yili 810,0 mln so'mlik ishlar samarali olib borildi, 2023-yili 734,0 mln so'mlik ishlar olib borildi, va 2024-yili 1512,0 mln so'mga yetkazish rejalashtirilgan.

Qoraqalpog'iston dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti xorijiy investorlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi³ va 2023 yilda xalqaro IKBA-SAK va IKARDA tashkilotlari, Qozog'iston dehqonchilik va o'simlikshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik shartnomalarini imzoladi. IKBA-SAK bilan "Qoraqalpog'istonning degradatsiyaga uchragan hududlarida Barqaror qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirish" mavzusidagi hamkorlik loyihalari olib borilmoqda.

G'o'zaning "KK-3535" navi, miqdori 27,0 ni, hayotga tatbiq etish imkoniyati 450 ga ni, kuzgi bug'doyning "Orol" navi va "Chimboy" navlari, miqdori 11,1 ni, hayotga tatbiq etish imkoniyati 44 ga ni, kunjutning "Qarshi" navi, miqdori 1,2 ni, hayotga tatbiq etish imkoniyati 240 ga ni, jing'ichqaning "Qoraqalpoq-25" navi, miqdori 0,6 ni, hayotga tatbiq etish imkoniyati 120 ga ni, yem-xashak ekinlaridan 5,0 ni, hayotga tatbiq etish imkoniyati 250 ga ni tashkil etadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun noqulay mintaqa bo'lib, iqlimi keskin kontinental. So'nggi yillarda Orolbo'yi mintaqasida yuzaga kelgan ekologik muammolar qishloq xo'jaligida ham o'z aksini topmoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasida Amudaryodan qishloq xo'jaligi uchun foydalaniladigan suv hajmi yildan yilga kamayib bormoqda.

² Шымбай аўыл хожалық илим изертлеу мекеме архив хўжжетлеринен. РА 12. 34 бет

³ Еркин Қарақалпақстан газетасы № 14 200230 07.02.2023

2019 yilda “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi” tasdiqlangan bo‘lib, unda quyidagi strategik ustuvor yo‘nalishlar qamrab olingan: aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash; qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat zanjirlarini yaratish; sohani boshqarishda davlat rolini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish; tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishni ta‘minlash; zamonaviy davlat boshqaruvi tizimlarini rivojlantirish; sohani qo‘llab-quvvatlash uchun davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish; qishloq xo‘jaligida ilm-fan, ta‘lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimlarini rivojlantirish; qishloq joylarini rivojlantirish; tarmoq statistikasining shaffof tizimini ishlab chiqish⁴.

Prezidentimizning 2020 yil 11 noyabrdagi “2020-2023 yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinishi Qoraqalpog‘iston Respublikasida ilmiy-tadqiqot ishlarini chuqurlashtirishga yangi turtki berdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumatining bir qator muhim farmon va qarorlarining qabul qilinishi Qoraqalpog‘iston Respublikasida ilmiy faoliyatning asosiy yo‘nalishlarini aniq belgilash imkonini berdi. Bu esa 2018-2020 yillarda 51 ta ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish va 80,5 mlrd. so‘mlik ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini berib, 66,6 mlrd. so‘mga realizatsiya qilingan. Jumladan, 2020 yilda 42 ta ilmiy ishlanma tijoratlashtirilib, 41,7 mlrd. so‘mlik ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarilgan va 33,2 mlrd. so‘mlik mahsulotlar sotilgan⁵.

Umuman olganda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi katta tabiiy, mineral-xom ashyo va qishloq xo‘jaligi resurslari, mehnat salohiyati, yo‘l, transport va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, ishlab chiqarish infratuzilmasi, qulay geografik joylashuvi va katta hududiga ega bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega yekanligini ko‘rsatish mumkin. Uni ilmiy o‘rganish ko‘plab ekspertlar va ilmiy markazlar uchun dolzarb mavzu hisoblanadi. 2017-2021 yillarda viloyatning yalpi ichki mahsuloti (YaIM) 32 foizga o‘shib, 26,3 trln. so‘mni tashkil etdi, sanoat ishlab chiqarishi 6,8 trln. so‘mdan 16,6 trln. so‘mga (o‘shib 30 foiz), qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi 20 foizga o‘shib, 2017 yildagi 5,0 trln. so‘mdan 2021 yilda 12,3 trln. so‘mgacha, viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 59 foizga o‘shib, 2017 yildagi 19,2 mingtadan 2021 yilda 27,4 mingtaga yetdi, infratuzilmani rivojlantirish sohasida esa 2278 km ichimlik suvi tarmoqlari yotqizildi va ta‘mirlandi. Aholini ijtimoiy himoya qilish va munosib turmush sharoitlarini yaratish borasida aholini munosib uy-joy bilan ta‘minlash kabi vazifalarni hal etish muhim ahamiyat kasb yetadi. Xususan, so‘nggi besh yilda viloyatda 4 390 ming kv.m. uy-joy foydalanishga topshirildi, maktabgacha ta‘lim muassasalarida 15,2 ming o‘rin, maktablarda 38,3 ming o‘rin yaratildi. Shu davrda 127 mingga yaqin ish o‘rni yaratildi⁶. Bu borada hududlar kesimida Qoraqalpog‘iston Respublikasi eng yuqori o‘shishni ko‘rsatdi.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 23.10.2019-yildagi PF-5853-son // <https://lex.uz/ru/docs/4567334>. Murojat: 24.09.2024.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi hududlarining ilmiy-texnik va innovatsion salohiyati tahlili. - Toshkent, 2002. 202-b.

⁶ Доклад Центра экономических исследований и реформ // <https://e-cis.info/news/567/98535/>. Murojat: 17.03.2024.

Ta'kidlash joizki, 2017-2021 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning barqaror o'sish sur'ati kuzatildi.

Bugungi kunda ham Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi asosiy o'rinni egallaydi. Yalpi hududiy mahsulotning 44 foizini qishloq xo'jaligi mahsulotlari tashkil yetadi. Qoraqalpog'iston Respublikasida asosan paxta, g'alla va dukkakli don ekinlari, sabzavot va poliz ekinlari yetishtiriladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2,7 foizdan 3,6 foizga, chorvachilik mahsulotlari ulushi 3,6 foizdan 4,1 foizga oshdi⁷.

Qishloq xo'jaligi fanlari sohasida Orol dengizining qurishi, aholi sonining ko'payishi va suv resurslarining cheklanganligi oqibatlarini hisobga olgan holda oziq-ovqat xavfsizligi va barqaror rivojlanishni ta'minlash muhim vazifa bo'lib qolayotgan edi, bu esa qishloq xo'jaligida innovatsiyalar va kashfiyotlarni doimiy ravishda rivojlantirishni talab qildi. Shu o'rinda qishloq xo'jaligi fanlari ilmiy-tadqiqot muassasalarining ilmiy salohiyati va tegishli moddiy-texnik bazasi mavjudmi, degan muhim masala o'z yechimini kutmoqda.

Bu jarayonga Qoraqalpog'iston dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimlari ham salmoqli hissa qo'shdilar. 2021 yil boshida institutda 17 kishi ishlagan, ulardan 6 nafari fan doktori, 11 nafari falsafa doktori va fan nomzodlaridir. Uch yil davomida institut xodimlari tomonidan texnik va boshqa ekinlarning yangi navlarini yetishtirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Mintaqamizning og'ir sharoitiga moslashgan. Institutda 2020 yilda fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun 1 ta doktorlik dissertatsiyasi muvaffaqiyatli himoya qilingan.

2018-2020 yillarda Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida 2 ta amaliy loyiha amalga oshirildi. 2021 yildan boshlab Qoraqalpog'iston sharoitida ekstremal suv tanqisligida qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishni ta'minlaydigan tuproqni tayyorlash va yekishni birlashtirish texnologiyasi va texnik vositasini ishlab chiqish vazifasi belgilandi. Yana bir yo'nalish sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasida bahorgi bug'doy yetishtirish agrotexnologiyasini ishlab chiqish va birlamchi urug'chilikni tashkil etish belgilandi.

Shu bilan birga, nafaqat innovatsiyalarni, balki stressga chidamli ekin navlarini joriy etishni ham talab qilgan respublika agrotizimining holatini hisobga olish muhimdir. Xususan, 2021 yilda Qoraqalpog'iston hududlarida qishloq xo'jaligini yuritishning barqaror tizimini rivojlantirish loyahasini tayyorlash ishlari boshlandi. Loyihani amalga oshirishdan asosiy maqsad stressga chidamli oziq-ovqat va ozuqa ekinlarini joriy etish, agrobiologik xilma-xillikni qo'llab-quvvatlash va saqlash, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan tuproq va suv resurslarini boshqarishni yaxshilash, shuningdek, O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasida yangi ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirishdan iborat.

Institutda yangi yaratilgan navlar va ixtirolar ko'plab uchraydi. 2019 yilda kuzgi bug'doyning Chimboy va Orol navlari yaratildi va 2021 yilda Chimboy navi, 2022 yilda Orol navi istiqbolli deb topilib, davlat reyestriga kiritildi.

⁷ Балташев С.Ф. Проблемы и перспективы обеспечения сельскохозяйственной продукцией населения Республики Каракалпакстан // Бюллетень науки и практики / Bulletin of Science and Practice <https://www.bulletennauki.com>. Т. 7. №9. 2021. <https://doi.org/10.33619/2414-2948/70>

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Айтмуратов Ж. Ғарезсизлик дэўиринде Қарақалпақстан мәдениятының раўажланыўы. – Нөкис: Билим, 1999.
2. Айтмуратов Ж. Культура Каракалпакстана в 70-90-годы. Общее состояние и тенденции развития. Тарих фанлари номзоди автореферати. Нукус. 1997.
3. Байниязов Қ. Академик Марат Көптілеў улы Нурмухаммедов. (Библиографиялық корсеткиш). – Нөкис: Қарақалпақстан, 2000.
4. Базарбаев Ж. Миллий идея - жол көрсетиўши жұлдыз. –Нөкис: Қарақалпақстан, 2011.
5. Б.А.Коцанов. Қарақалпақстан тарийхнамасы (ең жаңа дэўир). - Нөкис: Билим, 2016.
6. Камалов С.К. Плоды братской дружбы. “Вестник Каракалпакского филиала АН РУз”, 1971, № 1, с-7.